

SOTSIOLINGVISTIKANING TILSHUNOSLIKDA TUTGAN O'RNI

*Andijon davlat chet tillari instituti
 Roman-german va slavyan tillari fakulteti
 Nemis tili yo'nalishi talabasi
 Jaloldinov Muhammadsayid Sardorbek o'g'li*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada, asosan, sotsiolingvistikaning kelib chiqish tarixi, tilshunoslikda tutgan o'rni va vazifalari, sotsiolingvistikaning rivojlanishida o'z hissasini qo'shgan tilshunoslар haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *tilshunoslik, sotsiolingvistika, til, etnografiya, psixologiya, urf-odat, ijtimoiy hayot, sheva, dialekt, umumbashariy, bog'liq, jamiyat.*

Аннотация: В данной статье в основном представлены сведения об истории возникновения социолингвистики, ее роли и задачах в лингвистике, а также о лингвистах, внесших вклад в развитие социолингвистики.

Ключевые слова: языкознание, социолингвистика, язык, этнография, психология, традиция, общественная жизнь, диалект, диалект, всеобщий, родственный, общество.

Abstract: *This article mainly provides information about the history of the origin of sociolinguistics, its role and tasks in linguistics, and linguists who contributed to the development of sociolinguistics.*

Key words: *linguistics, sociolinguistics, language, ethnography, psychology, tradition, social life, dialect, universal, related, society*

Umumtilshunoslikda, jumladan, o'zbek tilshunosligida ham, keyingi yillarda ijtimoiy tilshunoslik sohasiga e'tibor birmuncha kuchaydi. Sotsiologiya va tilshunoslik sohalarning tutash nuqtasida paydo bo'lgan va tadqiq etilayotgan mazkur fanning taraqqiyoti sohalarning qay darajada o'rganilganligiga bog'liq, albatta. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan voqeа-hodisalarning u yoki bu darajada tilde aks etishi tabiiy hol.

Biroq bu jarayonning uzoq yillar davomida e'tirof etilmay kelganligi sotsiolingvistika sohasining rivojiga bir qadar salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Adabiy tilning noadabiy til vositalari (sheva, dialekt, jargon, argo va boshqalar) hisobiga rivojlanishi taraqqiy etishi tilshunoslarga ma'lum. Shunday ekan, ijtimoiy hayotda mavjud bo'lgan bu kabi hodisalar adabiy til uchun bitmas-tuganmas zahira ekanligini unutmaslik kerak. Shu munosabat bilan sotsiolingvistikaning nazariy asoslariiga bag'ishlangan ishlar yuzaga kela boshladi. Ijtimoiy va tilshunoslik sohalarinng hosilasi bo'lgan mazkur fan falsafa, etika, estetika, mantiq, psixologiya, etnografiya, tarix vas hu kabi ilmlarni chuqur bilishi ham talab qilinadi. [1, 186-b].

Yetuk tilshunos olimlardan Yu.D.Desheriyev, V.M.Jirmunskiy, L.B.Nikolskiy, A.D. Shveytsar kabilarning ijtimoiy tilshunoslikka bag'ishlangan ilmiy asarlari mazkur sohaning shakllanishiga asos bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida ham A.Nurmonov, X.Ne'matov, S.Mo'minov, A.Mamatov kabi olimlarning ishlari tafsinga loyiq.

Biz shunday jamiyatda yashayapmizki, ijtimoiy fan sohalari ancha nisbiy xarakterga ega bo'immoqda. Bunday fanlarga sotsiolingvistika misol bo'la oladi. U sotsiologiya va tilshunoslik fanlarining tutash joyida rivojlanayotgan sohadir.

Darhaqiqat, sotsiolingvistika tilshunoslik yo'nalishdagi fan bo'lib, ijtimoiy munosabatlarda tilning tutgan o'rnnini, til taraqqiyotining va tilning funksional jihatlarini hamda jamiyat til uchun, til esa jamiyat uchun xizmat qilishini o'rganadi.

Darhaqiqat, sotsiolingvistika shallanish, qurilish, taraqqiyot nuqtayi nazaridan tilning ijtimoiy shartlanganligini, „tilning jamiyatga, jamiyatning tilga ta'sirini” o'rganuvchi fan sifatida qaralmog'i lozim. Vaholanki, ijtimoiy lingvistika hayot qonuniyatlarini til faktlari asosida o'rganar ekan, uning o'ziga xos xususiyatlarini anglamoq va tushunib yetmoq lozim bo'ladi. Avvalambor, sotsiolingvistika bir qancha termin ostida nomlanishi bunga yaqqol misoldir. Jumladan, „ijtimoiy til”, „ijtimoiy tilshunoslik”, „tilshunoslikning ijtimoiyligi”, „falsafiy tilshunoslik”, „tilning ijtimoiyligi”, „sotsiolingvistika” kabi atamalar bilan nomlashlar bu fanning o'ziga xos xususiyatga ega ekanligidan dalolatdir. [3, 131-b].

Sotsiolingvistika termini tilshunoslikda birinchi bor 1952-yilda amerikalik tadqiqotchi X.Karri tomonidan tadbiq etilgan bo'lib, bu termin ostidagi tushunchalar, umuman, tilshunoslikning allaqachon paydo bo'lganligini anglatish bilan birga, undan asosiy ko'zlangan maqsad tilning umumbashariy tushuncha sifatida paydo bo'lganligini e'tirof etishdir.

20-30-yillarda rus tilshunos olimlari bu fanni ikki xil nomlash asosida o'rganib keldilar. „Sotsialnaya lingvistika”, „Sotsiolingvistika” kabi atamalar o'sha davr ruhi bilan bog'liq tarzda hosil qilingan edi. Keyinchalik, aniqrog'i 50-yillarga kelib „sotsiolingvistika” terminini hayotga tadbiq etish ma'qul variant deb topildi. Negaki, tilning hayot bilan, jamiyat bilan chambarchas bo'liqligini, milliy an'ana va milliy qadriyatlar, shuningdek, millatga xos urf-odatlarning shakllanishi va yuzaga kelishi sotsiolingvistika terminiga mosdir. Fanni shu tarzda nomlash hech qanday mushkulotni yuzaga keltirmaydi. Sabab „sotsiolingvistika” termini, qayd etib o'tilganidek, ikki soha tutash nuqtasida yuzaga kelgan, bu o'z vaqtida fanlararo munosabatlarni rivojlantirishda muhim omil bo'la oladi.

Sotsiolingvistikani fan sifatida o'rganish jarayonida uning umuminsoniy hamda siyosiy xususiyatlari, jumladan, til va jamiyat, til va mafkura, til va xalq, til va yosh, til va jins, davlat institutlarida til, til taraqqiyotini rejalashtirish, shuningdek, tilning falsafiy xususiyatlarini o'rganish lozim bo'ladi. Shunday ekan, sotsiolingvistikani o'rganish va tadbiq etish jarayonida uning ijtimoiy-lisoniy omil sifatida hayot va jamiyatda tutgan

o'rni baholanadi. Shu orqali sotsiolingvistika va umumiy fanlar nazariyalari haqida ma'lumotga ega bo'lamiz. Ayniqsa, ko'pgina tilshunos olimlar nazdida „sotsiolingvistika” ni falsafiy tilshunoslik deb qarashlar ham bu fanni boshqa fanlar bilan uzviy aloqadorligini anglatadi. Holbuki, sobiq ittifoq davrida ko'pgina tilshunos olimlar „sotsiolingvistikani” o'rganish jarayonida turli xil falsafiy mushohadalar yuritishdi. Ularning ayrimlari materialistik nuqtayi nazardan yondashgan bo'lsalar, ba'zilari esa idealistik nuqtayi nazardan qarab keldilar. Biz esa ijtimoiy tilshunoslik masalalarini to'g'ri baholash va aniqlashni hayot va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'lab o'rganamiz.[2, 345-b].

Jumladan, O.Axmanovaning „Lingvistik terminlar lug'ati” yoki A.Xojiyevning „Lingvistik terminlarning qisqacha izohli lug'ati”ni ko'zdan kechirish orqali ham bu masalaga oydinlik kiritish mumkin. Xususan, O.Axmanova lug'atida „sotsiolingvistika” termini „ijtimoiy lingvistika” „tilshunoslik ijtimoiyligi” deb atalishi asosida quyidagicha ma'no kelib chiqadi. Birinchidan, tilning umuminsoniy munosabatlardagi o'rni, til va jamiyat o'rtasidagi xususiyatlarning o'zaro bog'liqligini o'rganish tadbiq etilsa, ikkinchidan, tilshunoslikning ijtimoiy munosabatlardagi turli xil vazifaviy xususiyati va aloqadorligi (masalan: ijtimoiy dialekt, hududiy dialektlar, argo va jargonlar) va hokazolar til va jamiyat o'rtasidagi mushtaraklikni bog'lashga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Ikkinchi vaziyatda ijtimoiy dialektlarning ijtimoiy til mohiyatlarini belgilovchi xususiyatlari faqat ijtimoiy dialekt sifatida emas, balki professional nutq va hokazo tarzda tushuniladi. Ko'rindaniki, sotsiolingvistikaning asosiy muammosi til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishdan iboratdir. Shunday ekan, til va jamiyat munosabatlari o'rtasidagi bu bog'liqlik til va jamiyat taraqqiyotining korinishidir. Sotsiolingvistika predmetini akademik V.Jirmunskiy tor ma'noda ta'kidlab; sotsiolingvistika o'zaro ikki tomonlama bog'liq munosabatlari asosida tutash topgan, – degan xulosaga keladi, ya'ni:

1. Ijtimoiy til differensiyatsiyasi sinfiy jamiyat uchun xizmat qilib, uning tarixiy qatlamlarini o'rganadi. Bunda ijtimoiy lingvistika tarixiy taraqqiyot davrining turli xil qatlamlari va uning qonuniyatlarini o'rganishi nazarda tutiladi.

2. Tilning ijtimoiy qatlamlari taraqqiyotini, uning o'tmish tarixini belgilovchi omil sifatida xizmat qiladi, deydi. Shuningdek, V.Jirmunskiy „sotsiolingvistika”ni sinxron va diaxron tarzda o'rganishni ma'qul deb biladi. Professor B.Golovin esa „sotsiolingvistika” fanini tor va keng ma'noda talqin etishni maqsadga muvofiq deb biladi. Chunki sotsiolingvistika funksional (vazifaviy) ma'no kasb etib, u til qurilishi taraqqiyotiga xizmat qilishini ta'kidlaydi va tilning vazifaviy xususiyatlari bilan bog'liq, – degan xulosaga keladi. Ayni paytda, B.Golovin sotsiolingvistika terminining 7 xil xususiyatlarini sanab o'tadi.

- a) Differensiatsiyaga xoslanishi (xududiy dialektlar, qatlamlar);

- b) Tilning umuminsoniy xususiyatlari (unda yozma va o'zaki til qonuniyatlarini nazarda tutiladi);
 - c) Tilning nutq jarayonidagi xolati (dialogik, monologik nutq ko'rinishlari);
 - d) Ijtimoiy jamiyatning kollektiv bilan tilning funksional (vazifaviy) belgilari;
 - e) Ijtimoiy guruhlari, ijtimoiy til qatlamlari majmuasi (professional nutq, xalq maqollarini variantlari);
 - f) Badiiy tilning tur va xususiyatlari (epik, drammatik, lirik, janrlari);
 - g) Avtor so'zi va uning xarakterli belgilari (xususiylik, variant, variantlilik)
- B.Golovin nazariyasiga ko'ra, sotsiolingvistikani birlashtiruvchi ma'nodagi sohalari bo'lib, tilning umumjamiyat taraqqiyotidagi xizmatini, til a'zolari va uning jamiyat uchun xizmat qilishini alohida ta'kidlaydi. Jumladan, ijtimoiy til hammaga baravar, ya'ni ishchi, dehqon, xizmatchi, ziyolilarga ham xizmat qiladi. Golovindan keyin taniqli tilshunos olim F.Filin ham „til jamiyat“ uchun xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisadir, deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, sotsiolingvistikani tushunish uchun uch xil masalani mukammal bilishi lozim:

- a) ijtimoiy munosabatlarda til faktorlariga asoslanish, shu jumladan, til qurilishi masalasi. Bunda, shubhasiz, tilning ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat hayotida tutgan o'rni, ayni zamonda uning ijtimoiy factor sifatida e'tirof etilishi hisobga olinishi lozim;
- b) tilning umum vazifaviy belgilarini tushunish;
- c) tilning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, sotsiolingvistika va uni hayotga tadbiq etishda muhim omil sanaladi. Bunda, shubhasiz umum til qonuniyatlarini belgilashda ijtimoiy til faktorlari muhim ahamiyat kasb etadi. [4, 162-b].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Поливанов Е. Статьи по общему языкознанию.-М.: «Наука», 1968, - С. 186.
2. Головин Б. Вопросы социальной дифференциации языка // Вопросы социальной лингвистики. - Л.: «Наука», 1969.-С.345.
3. Филин Ф. Очерки по теории языкознания.-М.: «Наука», 1982.-С.131.
4. Степанов В. Высшая система языка и типы ее связи с внутренной структурой // Принципы описания языко мира.-М.: «Наука», 1978.-С 162